# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONOPOLIYAGA QARSHI KURASH JARAYONLARI TAHLILI

**Shomirzayev A.A.**
Termiz shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi siyosati va uni takomillashtirish mexanizmlari nazariy jihatlari, tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini rivojlatirish va monopoliyani cheklash borasida qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi faoliyati hamda huquq va vazifalari chuqur tahlil qilingan.
**Tayanch so‘zlar:** Raqobat, monopoliya, meyoriy-huquqiy hujjatlar, monopoliyaga qarshi siyosat, ustun mavqe, tabiiy monopoliya.
**Annotation:** Theoratical points of the main approaches of antimonopolistic policy of Uzbekistan, judicial documents to take control goods and capital market are explored and performance and functions of Antimonopoly committee of Uzbekistan are analysed. Suggestion and conclusion are offered to develop the main approaches of antimonopolistic policy of Uzbekistan.
**Key words:** Competition, monopoliy, judicial documents, antimonopolistic policy, natural monopoly, Antimonopoly Committee of Uzbekistan, goods and capital market.

O‘zbekiston Resublikasida monopoliyaga qarshi kurashda maxsus vakolatli organ “O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi kurash qo’mitasi” (keying o‘rinlarda – Qo‘mita) o‘z faoliyatini raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga asosan olib boradi. Shuningdek, Qo‘mita o‘z zimmasiga raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ishlarni qo‘zg‘atish va ko‘rib chiqish va ushbu qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish vazifalarini oladi. Raqobat qonunchiligini buzish bilan bog‘liq masalalar 1996 yil 26-apreldagi “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, 1998-yil 28- dekabrdagi “Reklama to‘g‘risida”gi, 1999 yil 19-avgustdagi “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi (yangi tahriri), 2012 yil 20-dekabrdagi “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib taomillari to‘g‘risida”gi Qonunlarda o‘z aksini topgan. 1991-2012 yillarda raqobat qonunchiligini buzish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar yuqoridagi qonunlar va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan, ammo, hozirda raqobat qonunchiligini buzish bilan bog‘liq masalalar 2012 yil 6-yanvarda qabul qilingan “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan ko‘rib chiqilmoqda. Raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi qonun hujjatlarni qo‘zg‘atish va ko‘rib chiqish monopoliyaga qarshi organ tomonidan amalga oshiriladi.

Raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ishlarni qo‘zg‘atish va ko‘rib chiqish uchun monopoliyaga qarshi organning o‘z tekshiruvlari, o‘rganishlari, yuridik va jismoniy shaxslarning, davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimyati organlarining arizalari hamda ommaviy axborot vositalaridagi huquq buzilishi belgilari mavjudligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar mavjud bo‘lgan xabarlar (arizalar) asos bo‘ladi.

Ariza monopoliyaga qarshi kurashuvchi organga qonun hujjatlari buzilganligi holatlari (belgilari)dan dalolat beruvchi hujjatlar ilova qilingan holda yozma shaklda beriladi. Monopoliyaga qarshi organ berilgan arizani oldindan ko‘rib chiqadi va ariza bilan birga berilgan hujjatlar va materiallarni o‘rganadi.

Qonun hujjatlari buzilishi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish uchun monopoliyaga qarshi organda qonun hujjatlari buzilganligini ko‘rib chiqish bo‘yicha monopoliyaga qarshi organning mas’ul xodimlaridan iborat maxsus komissiyalar tashkil etiladi.

Ishni ko‘rib chiqishni kechiktirish, to‘xtatib turish, qayta tiklash va tugatish to‘g‘risida ajrim chiqariladi va u komissiya raisi va a’zolari tomonidan imzolanadi hamda uning nusxasi ishni ko‘rib chiqish qatnashchilariga jo‘natiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 4- moddasiga ko‘ra: nosog‘lom raqobat- xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo‘lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo‘lgan hamda boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan yoxud ularning ishchanlik obro‘siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo‘lgan harakatlari tushiniladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi iqtisodiyot tarmoqlarida raqobat muhitini yaxshilash va monopoliyani cheklash borasida mamlakatimizda qabul qilingan meyoriy-huquqiy hujjatlarga asosan ish ko‘radi va aniq dastur va yo‘nalish asosida faoliyat olib boradi, jumladan, qonunchilik hujjatlari va davlat organlari qarorlarining raqobat muhitiga ta’sirini baholash sohasida, insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirishlar va kartel kelishuvlarga qarshi kurashish sohasida yoki boshqa shu kabi sohalarda o‘z vakolatidan kelib chiqqan holatda faoliyat yurtishda me’yoriy-huquqiy hujjatlar ya’ni qonun, qaror va farmonlarga asosan ish yuritadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

I. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar va qonun loyihalari
1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
1.2. O‘zbekiston Respublikasi “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ – 221-I-qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 24.04.1996.
1.3. O‘zbekiston Respublikasi “Monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ – 623-sonli qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 02.07.1992.
II. Ilmiy kitoblar, monografiyalar va to‘plamlar
2.1. Azizov X. T. va boshqalar. Raqobat huquqi. Darslik. T. TDYU. 2006.
2.2. Alden F. Abbott. A brief overview of american antitrust law. Visiting Fellow, All Souls College, Trinity Term. 2005.
2.3. Alimjonova J.I. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. T. TKTU. 2010.
2.4. Beknozov N. Iqtisodiyot nazariyasi. T. TDYU. 2005.
III. Internet saytlari
3.1. www.antimon.gov.uz O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi rasmiy sayti.
3.2. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlar.